

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra viloyatda 4 576 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 779 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 775 tasi (16,9 %) kiyim ishlab chiqarishga, 666 tasi (14,6 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 463 tasi (10,1 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyul holatiga ko'ra



II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 20 311,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,7 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Namangan viloyati	20 311,5	108,7
Namangan shahar	5 772,6	112,1
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	620,9	110,3
Kosonsoy tumani	926,0	108,2
Namangan tumani	829,0	116,4
Norin tumani	277,2	116,1
Pop tumani	603,7	113,6
To'raqo'rg'on tumani	3 429,0	105,5
Uychi tumani	1 246,4	108,4
Uchqo'rg'on tumani	710,9	116,7
Chortoq tumani	609,8	110,3
Chust tumani	1 828,0	109,3
Yangiqo'rg'on tumani	243,5	112,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2026- yil yanvar-iyun oylarida 6 343,0 ming so'm (2025- yil yanvar-iyun oylarida 5 717,0 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 % ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 023,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,8 %)ni tashkil etgan holda, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashtirishda 2 961,9 mlrd so'm (14,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 243,8 mlrd so'm (1,2 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 82,7 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 13 564,0 tonna paxta chigiti (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 3,8 martaga ko'paygan), 223,7 tonna paxta tiviti(lint) (12,5 % ga kamaygan), 21 115,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (11,4 % ga kamaygan), 11 683,9 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (15,0 % ga ko'paygan) hamda 2 184,5 tonna tozalanmagan paxta yog'i (61,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun *	2026-yil yanvar-iyun
Paxta chigiti, tonna	14 173,2	3 595,2	13 564,0
Paxta tiviti (lint), tonna	686,4	255,7	223,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	20991,0	23 828,0	21 115,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	18 182,8	13745,1	11 683,9
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	8 662,5	5 653,9	2 184,5
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	6 318,0	2 011,7	383,2
Paxta iplari, tonna	22 148,2	15 378,7	36 719,9
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	3 262,6	3618,5	3847,3

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 39,7 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,7 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,4 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,1 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarishning ulushi esa – 4,1 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 150,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,8 %ni (2025-yilning yanvar-iyun oylarida 1,4%), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,1 % (7,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,6 % (14,7 %), quyi texnologiyali 75,5 % (76,0 %)ni tashkil etgan.

Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 79,0 %ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa, 109,6 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun *	2025-yil yanvar-iyun *	2026-yil yanvar-iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln.kvt.s	3 192,8	3 022,0	2 386,3
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	63,9	48,6	53,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 174,5 %ga ko'payish, oqava suvlarning shلامي 2,2 martaga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek, Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 146,8 %ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun *	2025-yil yanvar-iyun *	2026-yil yanvar-iyun
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	68,8	71,6	124,9
Oqava suvlarning shلامي - mlrd.so'm	4,7	6,2	14,1
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	30,9	32,6	47,9

*2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 503,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 51,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 50,7 % ni tashkil etgan.



*2025-yil yanvar-iyun oylari uchun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayta aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Abduraxmonova
69 211-72-00 (5010)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
